



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

1936–1950-YILLARDA XORAZM VILOYATI MATBUOTINING IJTIMOIY- SIYOSIY VA MAFKURAVIY FUNKSIYALARI (URUSH VA URUSHDAN KEYINGI YILLAR MISOLIDA)

Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi

Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada 1936–1950-yillar davomida Xorazm viloyatida faoliyat yuritgan mahalliy matbuot nashrlarining, xususan, “Xorazm haqiqati” gazetasining ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va axborotiy funksiyalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davr sharoitida matbuotning aholini siyosiy va ma’naviy jihatdan safarbar etish, mehnat qahramonligi va vatanparvarlik g’oyalarini targ’ib qilish, davlat siyosatini omma ongiga singdirishdagi rolini ochib beradi. Gazeta sahifalarida yoritilgan ishlab chiqarish ko’rsatkichlari, ayollar va o’smirlar mehnati, millatlararo birdamlik hamda ko’chirib keltirilgan aholiga oid materiallar tahlili orqali mahalliy matbuotning nafaqat axborot manbai, balki mafkuraviy boshqaruv vositasi sifatidagi o’rni asoslab beriladi. Maqolada matbuot materiallari tarixiy manba sifatida baholanib, ularning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy muhitini tiklashdagi ahamiyati ko’rsatib beriladi.

Kalit so’zlar. Xorazm viloyati, mahalliy matbuot, “Xorazm haqiqati”, Ikkinchi jahon urushi, sovet mafkurasi, mehnat qahramonligi, ayollar mehnati, ijtimoiy mobilizatsiya, millatlararo birdamlik.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ПРЕССЫ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В 1936–1950 ГГ. (НА ПРИМЕРЕ ВОЕННЫХ И ПОСЛЕВОЕННЫХ ЛЕТ)

Бобожанова Гулхаё Абдирим кизи

Ургенчский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В данной научной статье на основе исторических источников анализируются социально-политические, идеологические и информационные функции местных печатных изданий, действовавших в Хорезмской области в 1936–1950 годах, в частности газеты «Хорезм ҳақиқати». Исследование раскрывает роль прессы в условиях Второй мировой войны и послевоенного периода в политической и духовной мобилизации населения, пропаганде идей трудового героизма и патриотизма, а также в внедрении государственной политики в массовое сознание. Анализ материалов, посвящённых производственным показателям, труду женщин и подростков, межнациональному единству и переселённому населению, позволяет обосновать значение местной прессы не только как источника информации, но и как инструмента идеологического управления. В статье материалы периодической печати рассматриваются как исторический источник и подчёркивается их значимость в реконструкции социально-политической среды общества.

Ключевые слова: Хорезмская область, местная пресса, «Хорезм ҳақиқати», Вторая мировая война, советская идеология, трудовой героизм, женский труд, социальная мобилизация, межнациональное единство.

SOCIO-POLITICAL AND IDEOLOGICAL FUNCTIONS OF THE PRESS IN THE KHOREZM REGION (1936–1950): THE CASE OF THE WAR AND POST-WAR PERIOD

Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi

Urgench State University, Independent Researcher

Abstract

This scholarly article analyzes the socio-political, ideological, and informational functions of local press publications operating in the Khorezm region between 1936 and 1950, with particular focus on the newspaper “Khorezm Haqiqati”, based on historical sources. The study reveals the role of the press during the Second World War and the post-war period in mobilizing the population politically and morally, promoting ideas of labor heroism and patriotism, and embedding state policy into public consciousness. Through an analysis of materials covering production indicators, the labor of women and adolescents, interethnic solidarity, and relocated populations, the article substantiates the role of the local press not only as a source of information but also as an instrument of ideological governance. The press materials are assessed as historical sources, and their significance in reconstructing the socio-political environment of society is highlighted.

Keywords: Khorezm region, local press, Khorezm Haqiqati, Second World War, Soviet ideology, labor heroism, women’s labor, social mobilization, interethnic solidarity.

1936–1950-yillar O‘zbekiston, xususan, uning mintaqalaridan biri bo‘lgan Xorazm viloyati tarixida murakkab va ziddiyatli davr sifatida ajralib turadi. Bu yillar sovet davlatida stalinchilik siyosatining kuchayishi, jamiyat ustidan qat’iy mafkuraviy va siyosiy nazorat o‘rnatilishi, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va ruhiy bosimlar bilan tavsiflanadi.

Mazkur jarayonlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, axborot va targ‘ibot sohasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Sovet davlati sharoitida matbuot oddiy axborot tarqatuvchi vosita bo‘lib qolmasdan, davlat mafkurasining asosiy tashuvchisi va jamoatchilik ongini shakllantirish mexanizmlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, urush yillarida matbuotning vazifalari yanada kengaydi: aholini siyosiy jihatdan birlashtirish, mehnat va frontdagi fidoyilikni targ‘ib etish, davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy kayfiyatni shakllantirish uning ustuvor vazifalariga aylandi.

Xorazm viloyati matbuoti ham ushbu umumittifoq siyosiy jarayonlardan chetda qolmadi. “Xorazm haqiqati” gazetasi viloyatning asosiy bosma nashri sifatida partiya va hukumat qarorlarini ommaga yetkazish, sotsialistik mehnat g‘oyalarini targ‘ib qilish, aholida sovet fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish vazifasini bajardi. Gazeta sahifalarida nafaqat rasmiy qarorlar va buyruqlar, balki ularni hayotga tatbiq etishga qaratilgan targ‘ibot materiallari, ishlab chiqarishdagi ilg‘or tajribalar, mehnat qahramonlari haqidagi ocherklar muntazam e’lon qilindi.

1941-yilda Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan mahalliy matbuot faoliyati tubdan o‘zgardi. “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” shiori ostida gazeta sahifalarida harbiy frontdan xabarlar, jangchilarning jasorati, front ortidagi mehnat fidoyilarining faoliyati ustuvor o‘rin egalladi. Matbuot xalq ongini birlashtirish, dushmanga nafarat uyg‘otish, mehnatni front manfaatlariga bo‘ysundirish vositasiga aylandi. Bu jarayonda gazeta axborot berish bilan cheklanib qolmay, aholini ma’naviy ruhlantirish va safarbar etish funksiyasini ham bajardi.

Urush yillarida Xorazm viloyatida sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari front ehtiyojlariga moslashtirildi. Mazkur jarayonlar "Xorazm haqiqati" gazetasi sahifalarida tizimli ravishda yoritilib, paxta, oziq-ovqat, ipak va boshqa xom ashyo yetkazib berishdagi aholi mehnati yuksak baholandi. Ayniqsa, erkaklar frontga safarbar etilgan sharoitda ayollar va o'smirlarning ishlab chiqarishdagi faol ishtiroki alohida ta'kidlandi.

Urushdan keyingi yillarda ham matbuotning mafkuraviy ahamiyati susaymadi. Aksincha, iqtisodiy tiklanish, aholini ish bilan ta'minlash, ko'chirib keltirilgan aholini joylashtirish, millatlararo birdamlikni mustahkamlash kabi masalalar gazeta materiallarining asosiy mavzulariga aylandi. Bu holat matbuotning sovet jamiyatida nafaqat axborot, balki ijtimoiy boshqaruv va tarbiya vositasi sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Shu boisdan ham Xorazm viloyati matbuotini, xususan, "Xorazm haqiqati" gazetasi materiallarini tarixiy manba sifatida o'rganish o'sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitini, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu maqolaning maqsadi — 1936–1950-yillar davomida Xorazm viloyati matbuotining ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy funksiyalarini urush va urushdan keyingi davr misolida tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Sovet davri matbuotini tarixiy manba va ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida o'rganish masalasi tarixshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar sovet matbuotining mohiyatini faqat axborot uzatish bilan cheklab bo'lmashligini, balki uni davlat mafkurasining asosiy tashviqot va ijtimoiy boshqaruv vositasi sifatida baholash lozimligini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda matbuot jamiyatni safarbar etish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash va davlat siyosatini omma ongiga singdirishda muhim rol o'ynagan.

Mahalliy va mintaqaviy matbuot masalasi respublika miqyosidagi tadqiqotlarda ko'pincha umumiy kontekstda yoritilgan bo'lib, viloyatlar kesimidagi aniq tahlillar kam uchraydi. Shu sababli Xorazm viloyati matbuoti misolida olib borilgan tadqiqotlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Xorazm haqiqati" gazetasi sahifalarida chop etilgan materiallar orqali sovet mafkurasining mahalliy darajada qanday shakllantirilgani va jamoatchilik ongiga qanday singdirilgani masalasi muhim tadqiqot obyekti.

Tadqiqotchi A.Q. Qodirov sovet matbuotini ijtimoiy jarayonlarni faqat aks ettiruvchi emas, balki ularni shakllantiruvchi faol mexanizm sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, "sovet matbuoti axborot beruvchi emas, balki ijtimoiy mobilizatsiya vositasi sifatida faoliyat yuritdi. Uning vazifasi jamoatchilik ongini davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash yo'lida yo'naltirishdan iborat edi"[10]. Ushbu yondashuv Xorazm viloyati matbuoti faoliyatini tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

R. Karimov tadqiqotlarida esa urushdan keyingi yillarda matbuotning asosiy funksiyalari ochib beriladi. Uning fikricha, mazkur davrda gazeta va jurnallar aholining mehnat faolligini oshirish, davlat g'amxo'rligini targ'ib etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning "ijobiy natijalari"ni keng yoritishga xizmat qilgan[11]. Shuningdek, u millatlararo munosabatlar masalasiga alohida e'tibor qaratib, urushdan keyingi matbuotda do'stlik va birdamlik g'oyalari davlat mafkurasining muhim tarkibiy qismiga aylanganini ta'kidlaydi[13].

Mazkur ilmiy qarashlar "Xorazm haqiqati" gazetasi materiallarini tahlil qilishda muhim metodologik va nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki gazeta sahifalarida nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar va rasmiy xabarlar, balki jamiyatning axloqiy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ideologik materiallar ham keng o'rin olgan. Shu boisdan, Xorazm matbuoti materiallarini tarixiy manba sifatida o'rganish orqali sovet jamiyatining siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy muhitini yanada chuqurroq anglash mumkin.

Metodologik yondashuv. Mazkur tadqiqot tarixiylik va manbashunoslik tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida Xorazm viloyatida 1936–1950-yillarda chop etilgan mahalliy

matbuot nashrlari, xususan, “Xorazm haqiqati” gazetasining urush va urushdan keyingi yillarga oid sonlari asosiy manba sifatida tanlab olindi. Gazeta materiallari birlamchi tarixiy manba sifatida tahlil qilinib, ularning mazmuni o’sha davr ijtimoiy-siyosiy kontekstida talqin etildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tarixiy-tahliliy metod — matbuot materiallarini davr voqealari bilan bog‘liq holda o‘rganish;
- mazmuniy tahlil — maqola va xabarlarining mafkuraviy, axborotiy va tarbiyaviy yo‘nalishlarini aniqlash;
- taqqoslash metodi — urush va urushdan keyingi davr matbuot materiallarining tematik va uslubiy farqlarini aniqlash;
- tizimli yondashuv — matbuotni sovet siyosiy boshqaruv tizimining tarkibiy qismi sifatida baholash.

Gazeta sahifalarida keltirilgan raqamlar, statistik ma’lumotlar va iqtiboslar alohida e’tibor bilan tahlil qilindi. Chunki bunday ko‘rsatkichlar faqat iqtisodiy axborot sifatida emas, balki mafkuraviy ta’sirni kuchaytirish vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Masalan, reja bajarilish foizlari, ishlab chiqarish hajmi va mehnat normasi kabi ma’lumotlar sovet matbuotida “mehnat qahramonligi” g‘oyasini mustahkamlashga qaratilgan.

Shuningdek, tadqiqotda matbuot materiallarining ochiq va yashirin mazmun qatlamlari farqlanib o‘rganildi. Ya’ni, rasmiy bayon etilgan ijobiy holatlar ortida mavjud bo‘lgan ijtimoiy muammolar — ishchi kuchi yetishmasligi, majburiy mehnat, bolalar va ayollar mehnatining kengayishi — matnda qanday mafkuraviy shaklda berilgani tahlil qilindi. Bu yondashuv sovet matbuotining real ijtimoiy vaziyatni qanday ideologik “bezash” orqali yoritganini aniqlash imkonini berdi.

Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuv Xorazm viloyati matbuotini nafaqat tarixiy axborot manbai, balki jamiyatni boshqarish va safarbar etish mexanizmi sifatida kompleks o‘rganish imkonini beradi.

Tahlil. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyati matbuoti, xususan, “Xorazm haqiqati” gazetasi sovet davlatining harbiy-siyosiy strategiyasi doirasida faoliyat yuritgan muhim axborot va mafkuraviy vositalardan biriga aylandi. Urushning dastlabki kunlaridanoq gazeta sahifalarida front xabarlar, jangchilarning jasorati, dushmanga nisbatan nafrat va g‘alabaga ishonch ruhini shakllantirishga qaratilgan materiallar ustuvor o‘rin egalladi. “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” shiori ostida chop etilgan maqolalar matbuotning asosiy yo‘nalishini belgilab berdi.

Urush sharoitida matbuotning asosiy vazifalaridan biri aholini mehnat frontiga safarbar etish bo‘ldi. Gazeta sahifalarida har bir kolxozchi, ishchi yoki xizmatchining frontdagi g‘alabaga qo‘shayotgan hissasi alohida ta’kidlandi. Ishlab chiqarish natijalari, davlatga topshirilgan mahsulotlar va yig‘ilgan mablag‘lar haqida muntazam ma’lumotlar berilib, jamoaviy mas’uliyat va fidoyilik tuyg‘usi kuchaytirildi. Bu holat matbuotni nafaqat axborot manbai, balki aholini ruhiy jihatdan safarbar etuvchi vosita sifatida namoyon qildi.

Gazetaning muhim yo‘nalishlaridan biri Xorazm viloyati iqtisodiyotining urush ehtiyojlariga moslashuvini yoritish bo‘ldi. “Xorazm haqiqati” sahifalarida front uchun oziq-ovqat, paxta, ipak va boshqa xom ashyo yetkazib berishda viloyat aholisining faol ishtiroki targ‘ib qilindi. “Front uchun — har qadamda mehnat!”, “Xorazm paxtakorlari g‘alaba uchun!” kabi sarlavhali maqolalar orqali mehnat jarayoni bevosita vatanparvarlik bilan tenglashtirildi[1].

Urush yillarida erkaklarning katta qismi frontga safarbar etilgani sababli ishlab chiqarishning asosiy og‘irligi ayollar va o‘smirlar zimmasiga tushdi. Bu holat gazeta materiallarida “mehnat qahramonligi”, “fidoyilik”, “sotsialistik ong” tushunchalari orqali

ideallashtirilgan holda yoritildi. 1941 yil iyul oyida hukumatning ayollarga murojaatida ularning erkaklar kasbini egallab, ishlab chiqarishning barcha sohalarida faol bo'lishga chaqirilgani matbuot sahifalarida keng aks ettirildi[2].

Xorazm viloyatidagi sanoat korxonalarida misolida ayollar mehnatining kengaygani aniq raqamlar orqali ko'rsatildi. Jumladan, Urganch shahridagi 7-sonli tikuvchilik fabrikasida 1941 yil 1 iyul holatiga ko'ra 70 nafar staxanovchi ishlagan bo'lsa, bir oy o'tib ularning soni 89 nafarga yetgani qayd etiladi[3], [4]. Bu raqamlar bir tomondan ishlab chiqarish hajmining oshganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, matbuot orqali ayollarning mehnatdagi faolligini targ'ib qilishga xizmat qilgan.

Gazeta sahifalarida ilg'or ishchilar haqidagi xabarlar alohida o'rin egalladi. Tikuvchilik fabrikasi jamoasining ishlab chiqarish rejasini 100,3 foizga bajarib, mamlakatga 1 502 700 so'mlik qo'shimcha mahsulot bergani haqidagi ma'lumotlar bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, ko'p stanokda ishlovchi Tatyana Ignatovaning 8 soatda ikki-uch normani bajargani, tikuvchi Roziya Madrahimovaning esa bir smenada 130 kostyum tayyorlab, normani 165 foizdan oshirib bajargani ta'kidlanadi[5]. Bunday aniq statistik ko'rsatkichlar axborotning ishonchliligini oshirish bilan birga, mafkuraviy ta'sirni kuchaytirish vazifasini bajargan.

Mazkur materiallar sovet matbuotining ikki asosiy funksiyasini yaqqol namoyon etadi. Birinchidan, axborot funksiyasi orqali aholini ishlab chiqarishdagi natijalardan xabardor qilish; ikkinchidan, ideologik-tarbiyaviy vazifa orqali mehnatsevarlik, intizom va sotsialistik ongini shakllantirish. Mehnat qahramonligi g'oyasi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmay, axloqiy va siyosiy qadriyat sifatida targ'ib qilindi.

Urush yillarida matbuot sahifalarida frontdagi jangchilarga Xorazm aholisining moddiy va ma'naviy yordami haqidagi materiallar muntazam e'lon qilinib bordi. 1942–1943 yillarda chop etilgan maqolalarda kolxoz va zavod jamoalarining kiyim-kechak, oziq-ovqat va pul yordami yuborgani haqida xabarlar berildi. Bu orqali gazeta aholi o'rtasida birdamlik va umumiy g'alaba uchun mas'uliyat hissini mustahkamladi.

Urushdan keyingi yillarda matbuotning asosiy mavzulari iqtisodiy tiklanish, ijtimoiy muammolar va aholini mehnatga jalb qilish bilan bog'liq bo'ldi. Xususan, ko'chirib keltirilgan aholini joylashtirish va ularga yordam ko'rsatish masalalari gazeta sahifalarida keng yoritildi. 1946 yil 12 noyabr sonida chop etilgan xabarda 859 kishining korxona va muassasalarga, 1977 kishining kolxozlarga joylashtirilgani, 45 ming so'm moddiy yordam ko'rsatilgani, oilalarga uy-joy va ish joylari ajratilgani qayd etiladi[9]. Bu ma'lumotlar sovet davlatining paternalistik siyosatini va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarini aks ettiradi.

Shuningdek, matbuotda millatlararo birdamlik va insonparvarlik g'oyalari ham faol targ'ib qilindi. Sovet Armiyasi ofitserining rafiqasi Golovinaning xotiralari orqali ko'chirib keltirilgan aholiga mahalliy aholi tomonidan ko'rsatilgan mehr-oqibat va yordam tasvirlanadi[12]. Bu kabi materiallar bir tomondan real ijtimoiy holatni aks ettirsa, ikkinchi tomondan, "sovet xalqlari do'stligi" g'oyasini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Umuman olganda, Xorazm viloyati matbuoti urush va urushdan keyingi yillarda faqat voqealarni yoritish bilan cheklanmay, ularni ideologik talqin qilish orqali jamiyat ongini davlat siyosatiga mos shakllantirish vazifasini bajargan. Bu holat matbuotni sovet siyosiy tizimining ajralmas qismiga aylantirdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 1936–1950-yillarda Xorazm viloyati matbuoti, xususan, "Xorazm haqiqati" gazetasi sovet jamiyatida muhim ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy vazifalarni bajargan. Urush yillarida matbuot aholini front va mehnat frontiga safarbar etish, vatanparvarlik va fidoyilik ruhini shakllantirish vositasi sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, urushdan keyingi davrda iqtisodiy tiklanish, ijtimoiy barqarorlik va millatlararo birdamlik g'oyalarini targ'ib qilishga xizmat qilgan.

Gazeta materiallari orqali mehnat qahramonligi, ayollar va o'smirlar mehnati, davlat g'amxo'rligi va sovet xalqlari do'stligi kabi g'oyalar omma ongiga singdirilgan. Shu jihatdan, Xorazm viloyati matbuoti materiallari o'rganilayotgan davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini tiklashda muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot mahalliy matbuotni tarixiy manba sifatida kompleks o'rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хоразм ҳақиқати. – 1942. – 30 апр. – № 102 (4110).
2. Хорезмский областной государственный архив. Хорезмская правда. – 1941. – 20 июля. – № 171. – С. 2.
3. Стахановчи – совет даврида нормани бир ярим баравар ва ундан ортик бажарган ишчи // Изоҳ.
4. Хоразм вилояти архиви. Хоразм ҳақиқати. – 1941. – 6 нояб. – № 262. – Б. 4.
5. Хоразм вилояти архиви. Хоразм ҳақиқати. – 1941. – 6 нояб. – № 262. – Б. 2.
6. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎзР МДА). – Ф. 256. – Оп. 5. – Д. 43.
7. Saidova N. (ёки инициаллари кўрсатилса тўлиқ). – 2014.
8. Хоразм ҳақиқати. – 1942. – 15 март.
9. Хоразм ҳақиқати. – 1946. – 12 нояб. – № 268. – 1-бет.
10. Қодиров А.Қ. Ўзбекистон матбуоти тарихидан. – Тошкент: Университет, 2010. – 142-б.
11. Каримов Р. Ўзбекистонда совет матбуоти тарихи. – Тошкент: Фан, 1986. – 211-б.
12. Хоразм ҳақиқати. – 1946. – 25 дек. – № 301. – 2-бет.
13. Каримов Р. Ўзбекистонда совет матбуоти тарихи. – Тошкент: Фан, 1986. – 224-б.